

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ISMOILOV Hamdam Ismoilovich

*Bojxona instituti
dotsenti*

SALOHIDDINOV Sayyod G‘ayrat o‘g‘li

*Bojxona instituti
4-kurs kursanti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174642>

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUVNING AYRIM MASALALARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida tergovga qadar tekshiruvning bojxona sohasidagi dolzarb masalalarini o‘rganadi. Bojxona nazorati iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi va shubhali savdo operatsiyalarini aniqlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Maqolada bojxona sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilikni takomillashtirish, va xalqaro standartlarga mos keladigan tekshiruv jarayonlarini joriy etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tergovga qadar tekshiruvlar orqali noqonuniy tovarlar va xizmatlarni aniqlash, shuningdek, bojxona jarayonlarini samarali boshqarish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu tadqiqot, bojxona sohasidagi nazoratning samaradorligini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish uchun zaruriy asoslarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, bojxona, tergovga qadar tekshiruv, iqtisodiy xavfsizlik, qonunchilik nazorat, shubhali operatsiyalar, noqonuniy tovarlar, xalqaro standartlar, islohotlar, samaradorlik, hamkorlik.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ДОСУДЕБНОГО РАССЛЕДОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению некоторых вопросов предварительного расследования в таможенной сфере Республики Узбекистан. Таможенный контроль играет важную роль в обеспечении экономической безопасности и служит эффективным инструментом для выявления подозрительных торговых операций.

В статье рассматриваются проводимые в таможенной сфере реформы, вопросы улучшения законодательства и внедрения проверочных процессов, соответствующих международным стандартам. Через предварительные расследования выявляются незаконные товары и услуги, а также предлагаются рекомендации по эффективному управлению таможенными процессами. Данное исследование предоставляет необходимые основы для повышения эффективности контроля в таможенной сфере и укрепления международного сотрудничества.

Ключевые слова: Узбекистан, таможня, доследственная проверка, экономическая безопасность, законодательный контроль, подозрительные операции, незаконные товары, международные стандарты, реформы, эффективность, сотрудничество.

SOME ISSUES OF THE PRE-INVESTIGATION

ANNOTATION

This article is dedicated to examining some issues of pre-investigation in the customs sector of the Republic of Uzbekistan. Customs control plays an important role in ensuring economic security and serves as an effective tool for identifying suspicious trade operations.

The article discusses ongoing reforms in the customs sector, issues related to improving legislation, and the implementation of verification processes that comply with international standards. Through pre-investigations, illegal goods and services are identified, and recommendations for effective management of customs processes are provided. This research offers the necessary foundations for enhancing the efficiency of customs control and strengthening international cooperation.

Key words: Uzbekistan, customs, pre-trial inspection, economic security, regulatory oversight, suspicious transactions, illicit goods, international standards, reforms, efficiency, cooperation.

Jinoyat ishini qoʻzgʻatishdan avval tergov harakatlarini oʻtkazish jinoyat protsessining muhim institutlaridan biri boʻlib, jinoyat-protsessual qonunchilikka asoslanadi va u bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga, jinoiy-protsessual faoliyatning har qanday jabhasida boʻlgani kabi, uni amalga oshirishda ham qonun buzilishiga yoʻl qoʻyilishi mumkin emas. Chunki bu inson taqdiri bilan bogʻliq masala.

Tergovga qadar tekshiruv deganda, jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini bajarishga qaratilgan, Jinoyat-protsessual kodeks bilan tartibga solingan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan jinoyatning oldini olish yoki unga yoʻl qoʻymaslik, dalillarni toʻplash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zarar qoplanishini taʼminlash uchun kechiktirib boʻlmas tergov va boshqa barcha harakatlarni oʻtkazish faoliyatidan iborat ishni sudga qadar yuritishning alohida shakli tushuniladi.

2017-yil 6-sentabrdagi “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida” gi OʻRQ-442-son qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga yangi 40¹-bob kiritilib uning nomi “Ishni sudga qadar yuritishning umumiy shartlari” deya ataldi. Qonunchilikda esa ishni sudga qadar yuritish jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa maʼlumotlar qabul qilingan paytdan boshlanishi hamda tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni oʻz ichiga olishi belgilab qoʻyildi [1].

Tergovga qadar tekshiruv - jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa maʼlumotlarni tekshirish, ularni koʻrib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli boʻlishi mumkin boʻlgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va saqlashga doir chora- tadbirlar majmui. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv toʻplangan materiallar yuzasidan jinoiy qilmish mavjudligi yoki yoʻqligini aniqlashga yoʻnaltirilgan tergov harakatlarini amalga oshirishning huquqiy asosi boʻlib hisoblanadi [2].

Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasiga eʼtiborimizni qaratishdan boshlasak maqsadga muvofiq boʻladi. Ushbu moddada tergovga qadar tekshiruvni oʻtkazish 10 sutka va qoʻshimcha uzaytirilgan 20 sutka jami hisobda 1 oy muddatda yaʼni jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa maʼlumotlar olingandan toʻgʻri ishni qoʻzgʻatish yoki qoʻzgʻatishni rad qilish toʻgʻrisidagi qaror chiqarilgunga qadar yoxud barcha materiallar tegishli prokurorga yuborilguniga qadar boʻlgan muddatda amalga oshirilishi kerakligi aytib oʻtilgan. Ushbu muddat ichida quyidagi tergov va protsessual harakatlarni oʻtkazish mumkin:

- qoʻshimcha hujjatlar talab qilib olinishi;
- tushuntirish talab qilib olish
- shaxs ushlab turilishi;

- JPKning 162-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq shaxsiy tintuv va olib qo'yish amalga oshirilishi;

- hodisa sodir bo'lgan joy ko'zdan kechirilishi;
- ekspertiza o'tkazilishi;
- tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berilishi.

Ushbu moddaning asosiy talablaridan biri shuki, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish paytida boshqa tergov harakatlarini olib borish mumkin emas.

Tergovga qadar tekshiruv bosqichidagi protsessual faoliyat Jinoyat protsessual kodeksida belgilab qo'yilgan mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi hamda mazkur jarayon belgilangan sharoitlarda hamda maxsus protsessual shakllarda yuritiladi.

Jinoyat protsessining ushbu bosqichi kelib tushgan ariza, xabar yoki shikoyat bo'yicha to'plangan materiallar yuzasidan keyinchalik amalga oshiriladigan harakatlarning yo'nalishini belgilovchi aniq protsessual qaror bilan yakunlanadi. Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalaning yechimi surishtiruv va dastlabki tergovning umumiy vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. O'z navbatida, bu bosqichda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari, ya'ni jinoyatlarni tez va to'liq ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi va unga nisbatan sudning odilona hukmi chiqarilishi uchun aybdorlarni fosh etish hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash va amalga oshirilishini alohida ta'kidlash kerak.

Ushbu bosqichda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror o'z yurituviga qabul qilgan jinoyat ishini boshlash uchun qonuniy shartlar bajarilganligi tekshiradi va ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish va profilaktikasini qo'llashning tezkor choralarini ko'radi.

Tergovga qadar tekshiruvning mohiyati shundaki, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror to'plangan materiallar tarkibida jinoyat alomatlari bor bo'lganda tegishli jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorni qabul qiladi.

Jinoyat alomatlari yetarli bo'lmaganida yoki jinoyat tarkibi aniqlanmaganda jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinadi. Ushbu bosqichning mohiyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tushgan ariza va xabarlar yuzasidan tegishli protsessual qarorni qabul qilgunlariga qadar, u bo'yicha ko'rib chiqiladigan protsessual masalalarni hal etish bilan bog'liq faoliyat bo'lib, bularga quyidagi hal etiladigan masalalar tegishli:

- tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi xabar jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'ladimi;

- jinoyat, uning belgilari haqidagi xabarlardan olingan ma'lumotlar dalillarga asoslanganmi;
- mazkur jinoyat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qaysi moddasiga tegishli;
- olingan ma'lumotlar dalillarga asoslanganmi;
- jinoyat sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish kerakmi;
- dastlabki tekshiruv zarurati bormi, bo'lsa qanday tekshiruv ishlari (harakatlari)ni o'tkazish

kerak;

- organ yoki mansabdor shaxs jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini yechish huquqiga egami yoki uni tergovga tegishligiga qarab yuborish kerakmi;

- jinoyat ishini qo'zg'atishga qarshilik qiladigan holatlar mavjudmi;
- jinoyat ishi materiallarida ma'muriy, intizomiy choralar qo'llash bilan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish asoslari yo'qmi;

- jinoyat ishini qo'zg'atishda surishtiruv va dastlabki tergovni kim olib borish kerak;

- arz qiluvchi va xususiy ayblov tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atish iltimosi, shikoyati berilganda, yarashtirish uchun sudya tomonidan qanday choralar ko'rilishi mumkin;

- jinoyatning oldini olish va to'xtatish, jinoyat izlarini mustahkamlash va saqlash uchun qanday choralar ko'rilishi kerak.

Ushbu masalalarning ko'rilishi munosabati bilan, jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni qo'zg'atishni rad qilish haqidagi qaror chiqarishga qadar, quyidagi bir qator protsessual hujjatlar tuzilishi kerak, jumladan:

- arz qiluvchi imzosi qo'yilgan, bila turib yolg'on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirish mavjud ariza;
- aybiga iqror bo'lish haqidagi ariza bayonnomasi;
- muassasa, korxonona va tashkilotlarga yuboriladigan so'rovnomalar;
- fuqarolardan olinadigan tushuntirishlar;
- tezkor-qidiruv choralarini ko'rish zarurati haqida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organga hamkorlik asoslarida bergan protsessual topshirig'i;
- tegishli ekspertizalarni yoki taftish tayinlash to'g'risida qaror;
- materiallarni tergovga va sudga tegishligiga qarab yuborish to'g'risida qaror;
- jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarning huquq sohasiga e'tibor beradigan bo'lsak tergovga qadar tekshiruv bosqichi ham alohida bosqich sifatida e'tirof etilganligini guvojni bo'lishimiz mumkin. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish jarayoniga e'tibor beraylik. AQSH da tergovga qadar tekshiruv jarayonini turli federal agentliklar amalga oshiradi. Ular quyidagilar:

- Federal Qidiruv Byurosi (FBI) [3].
- Ichki xavfsizlik departamenti (DHS) [4].
- Boshqa federal huquqni muhofaza qilish idoralari [5].

Ushbu organlar mavjud dalillarni to'plash, jinoyat sodir etilganini aniqlash va huquqbuzarlarni kuzatib borishda ishtirok etadi. Shuningdek tergovga qadar tekshiruv, huquqiy normalar va maxfiylik qoidalariga qat'iy rioya etilishini talab qiladi va tergov jarayonining o'ziga xos bosqichlarini o'z ixhiga oladi. Tekshiruv muddati esa murakkablikka qarab o'zgaradi, lekin odatda 6 oydan ortiq davom etmasligi kerak.

Odatda, ushbu jarayon konstitutsion huquqlar va dalillar yig'ishdagi ehtiyotkorlikni talab qiladi. Tergov davomida to'plangan dalillar keyingi sud jarayonlarida qabul qilinishi uchun qonuniylik tamoyillari asosida tekshiriladi. Barcha jarayonlar ilmiy va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, forensik tahlillar yordamida yordamida dalillar isbotlanadi va jarayonning adolatli o'tishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tergov jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt va tahliliy dasturlar jalb qilinib, yuqori aniqlikdagi dalillar to'planadi va maxfiylikka zarar bermaydigan tarzda amalga oshiriladi. Shu sababli, tekshiruv jarayonida shaxsiy va maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish ham alohida e'tiborga olinadi.

AQSHda tergovga qadar tekshiruvning davomiyligi muammoning murakkabligiga, dalillar mavjudligiga va tekshiruvga jalb etilgan agentliklarning resurslariga bog'liq. Federal darajadagi tergovga qadar tekshiruvlar odatda bir necha haftadan olti oygacha davom etishi mumkin, ammo ba'zi murakkab ishlar yillarga cho'zilishi ehtimoli ham bor. Masalan, jinoyatning sodir etilgan vaqti, tergovchilarga zarur dalillar yoki guvohlarning mavjudligi va olingan ma'lumotlarning to'g'riligi tekshiruv muddatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardandir.

Agar tekshiruv davomida jinoyat sodir etilgani haqida dalillar yetarli bo'lsa, ish rasmiy tergov bosqichiga o'tkaziladi. Shu bilan birga, tergov organlari tekshiruv davomida shaxslarning konstitutsion huquqlarini himoya qilish uchun jarayonlarni tezkorlik bilan olib borishga harakat qiladi, chunki bu jarayonning cho'zilishi sud dalillarning yaroqliligi yoki sud jarayonining adolatli bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tergovga qadar tekshiruv jinoyatchilikka qarshi kurash va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim bosqich bo'lib, qonunga zid faoliyatlarni erta aniqlash va oldini olishda katta rol o'ynaydi. Tergovga qadar tekshiruv jarayonlarining xalqaro standartlarga moslashtirilishi, qonunchilikni takomillashtirish va samaradorlikni oshirish huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini jinoyatchilikdan holi hududga aylantirishimizda o'zining hissasini qo'shadi.

REFERENCES. ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 22.09.1994 <https://lex.uz/docs/-111460>
2. Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida 06.09.2017 yildagi O‘RQ-442-son // <https://lex.uz/docs/-3328284?otherlang=1>
3. <https://www.fbi.gov/services>
4. <https://www.dhs.gov/>
5. <https://www.usa.gov/>